

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar  
fakulteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiyoti va  
xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi 4-kurs  
talabasi Toshpo'latov Azizbekning bitiruv  
malakaviy ishi himoyasi uchun tayyorlagan

**TAQDIMOTI**

**Mavzu:** O'zbekistonda tashkil etilgan  
erkin iqtisodiy  
zonalarning tashqi savdoni  
rivojlantirishga ta'siri

## **Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tushunchasi.**

XX asrning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiyotidagi eng muxim hodisalarining biri erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyati hisoblanadi.

Bu hududlarning ko'pchiligidagi qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, dastaklar, maxsus ma'muriy qonunlar ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidan ozod qilmaydi, balki uni egalashtiradi va tadbirkorlikni ragbatlantiruvchi imtiyozlar beradi, xolos.

Bu bilan amalda davlat o'zining iqtisodiy  
jaryonlarga aralashuvini kamaytiradi.  
Yaponiyaning Kioto shaxrida 1973-yil  
18-mayda qabul qilingan «Bojxona  
jaryonlarini soddalashtirish va  
uyg'unlashtirish bo'yicha Xalqaro konvensiya»  
ga muvofiq erkin xudud deganda  
mamlakatning Shunday xududi tushuniladiki,  
bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona  
nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi

## ElZ ning asosiy ko'rinishlari.

Erkin iqtisodiy zonalarning tashkiliy-funksional tuzilmasi yetarli darajada turli-tumandir.


Ba'zan u yoki bu erkin iqtisodiy zonalarni bir so'z bilan guruhlarga ajratib bo'lmaydi, chunki ular ko'plab hududlarning xususiyatlarni o'zida jamlashi mumkin. erkin iqtisodiy zonalar mutaxassislar tomonidan hududda xo'jalik yurituvchi ko'plab firmalarning faoliyat sohasiga xo'jalik yuritishning ixtisoslashuviga ko'ra taxminan guruhlashtirilgan.

Erkin iqtisodiy zonalarni yaratishda ikkita kontseptual yondashish mavjud: hududiy va nuqtaqaviy. Birinchi holatda erkin iqtisodiy zonaga barcha rezident-korxonalar xo'jalik faoliyatining imtiyozli rejimidan foydalanadigan maxsus territoriya sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, erkin iqtisodiy zona-bu firmalar mamlakatning qaysi qismida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turiga qo'llaniladigan imtiyozli rejimdir

# Erkin iqtisodiy zonalarning turlari.

1. Savdo hududlari
2. Sanoat ishlab chiqarish hududlari
3. Texnikaviy ilmiy ishlab chiqarish hududlari
4. Servis xizmat ko'rsatish hududlari. Erkin bojxona hududlari.  
Bond omborlari. erkin portlar. erkin savdo  
hududlari. Importning o'rnini bosuvchi mahsulot  
ishlab chiqarish hududlari. eksport sanoati hududlari.  
Sanoat parklari. Ilmiy-sanoat parklari,  
Texnopolislar. Texnoparklar. Yangi va  
Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududlari.  
Offshor hududlar. Moliya markazlari. Bank xizmati  
hududlari. Turizm xizmati hududlari. Ekoparklar



## ***“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonası.***

*O`zbekistonda 2012 yilda  
mamlakatimizning investitsiyaviy  
jozibadorligini yanada yaxshilashga  
yo`naltirilgan bir qator qo`srimcha  
muhim qonun hujjatlari va huquqiy  
normalar qabul qilindi*

# **Navoiy viloyatida ishlab**

chiqarishni rivojlantirishda zamonaviy yuqori texnologiyalarga ega bo'lgan korxonalarini tashkil etish orqali jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorida o'z ulushiga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlash, hamda sanoat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ishtimoiy infratuzilmalarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2008 yil 2 dekabr №PQ-4059** qabul qaroriga asosan «**Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zonani yaratish**» to'grisida nizom ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda “**Angren**” maxsus industrial zonasida qiymati 186,0 million dollarlik 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Shular qatorida zarurat va ehtiyoj baland bo`lgan turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, Shuningdek, yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish alohida o`rin tutadi. “Angren” maxsus industrial hududi faoliyat yuritish muddati reja bo`yicha o`ttiz yilga mo`ljallangan

## “Jizzax” maxsus industrial zonası faoliyatini rivojlantirish

doirasida to`rtta loyiha amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 21 loyihani joriy etish uchun zarur hujjatlar tayyorlanmoqda va ushbu loyihalar yuzasidan Xitoy delegatsiyasining O`zbekistonga tashrifi doirasida shartnomalar imzolandi. .

Qo`lga kiritgan tajribamiz shuni tasdiqlab bermoqdaki, mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham **Navoiy** va **Angren** kabi maxsus industrial zonalarni, zamонавиј logistika tizimlari va transport infratuzilmalarini yaratish bo`yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadlarimizga javob beradi.

# **O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.**

Eksport ishlab chiqarish hududlari xalqaro assotsiatsiyasi prezidenti Richard Bolin va vitse- prezident

Robert Xeyvudlarning fikricha, erkin iqtisodiy zonalar

yaxshi erishish uchun birinchi navbatda qo'yidagi

omillar bo'lishi shart - investorlar uchun barqarorlik

va ular faoliyati uchun xavfsizlikni kafolatlay oladigan konunchilik va samarali ishlovchi ma'muriyat.

*EIZ to'g'risidagi qonun O'zbekistonda  
1996 yil  
25 aprelda qabul qilingan. O'zbekiston  
«Erkin iqtisodiy zonalar» qonuniga  
asosan,  
respublikada bunday hududlarning  
uch shakli, ya`ni :*

*Erkin savdo zonalari;  
Sanoat zonalari;  
Texnologik zonalarni rivojlantirish  
ko'zda tutilgan.*

EIZ infrastrukturasini rivojlantirish yoki boshqa maqsadlar uchun davlat budgetidan ajratiladigan mablaglar subsidiya, yordam shaklida emas, balki uzoq muddatga muljallangan kredit sifatida berilishi maqsadga muvofiqdir.

EIZ territoriyasida joylashgan barcha korxonalarning davlat budgeti bilan bo'ladigan hamma moliyaviy munosabatlari hudud ma'muriyati, uning budgeti orqali bo'lishi kerak, bu shart terroriyada xo'jalik faoliyatini boshqarishning samarali bo'lishi va umuman, iqtisodiy mustaqillikning bosh omilidir.